

**TIL LEKSIKASI SEMANTIK KATGORIYASINING NAZARIY  
MUAMMOLARI**

*N.Komilova*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

***Kalit so'zlar:* kategoriya, polisemiya, semantika, so'z dinamikligi**

**Kirish.** Til leksikasi inson fikrini ifodalash va aloqa jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida leksik-semantik tadqiqotlar, so'zlarning mazmuniy tarkibini va ularning o'zaro aloqalarini o'rghanishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada til leksikasining semantik kategoriyalari va ular bilan bog'liq nazariy muammolar ko'rib chiqiladi.

Leksik-semantik kategoriyalarning mohiyatishundan iboratki; leksik-semantik kategoriya so'zlarning ma'no jihatidan birlashishini aks ettiradi. Ushbu kategoriyalar orqali til hodisalarini tizimli ravishda tahlil qilish mumkin. Masalan, predmet kategoriysi, harakat kategoriysi, holat kategoriysi va sifat kategoriysi kabi asosiy semantik kategoriyalar mavjud. Bu kategoriyalar tilning universal xususiyatlarini belgilaydi va turli tillarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Semantik kategoriyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning dinamikligi va o'zgaruvchanligidir. So'zlarning semantik maydonlari yangi ijtimoiy, madaniy yoki texnologik o'zgarishlar ta'sirida kengayishi yoki torayishi mumkin. Bu jarayon so'zlarning ko'p ma'noliligi (polisemiya) va ma'nolar o'rtasidagi chegaralarning noaniqligi bilan bog'liq.

Ayni yo'nalishda asosiy nazariy muammolar sifatida bir qancha fikrlarni keltirib o'tadigan bo'lsak, ularni quyidagicha guruxlarga ajratish mumkin bo'ladi. Birinchi masala bu semantik chegaralar masalasi bo'lib, bunda leksik-semantik tadqiqotlarda so'zlar o'rtasidagi chegaralarni aniqlash muammoi mavjud. Ba'zi so'zlar bir vaqtning o'zida bir nechta kategoriya mansub bo'lishi mumkin, bu esa tahlilning murakkabligini oshiradi. Masalan, "uy" so'zi narsa predmetni nomini anglatish bilan bir qatorda, insonning yashash joyini, manzilgohini ham anglatishi

mumkin bo'ladi.

Keyingi masala bu polisemiya hodisasisidir. Polisemiya bu bir so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi hodisasi, omonimiya esa ikki yoki undan ortiq so'zning shaklan bir xil, lekin ma'no jihatidan har xil bo'lishini ifodalaydi. Bu hodisalarni farqlash leksik-semantik tahlilning eng muhim masalalaridan biridir. Misol uchun, "yoz" so'zi mavsumni yoki yozish harakatini anglatishi mumkin.

Muammolardan yana biri, leksik tizim va semantik maydonlar xisoblanadi. So'zlarning ma'nolarini faqat ularning individual xususiyatlari asosida emas, balki semantik maydon ichida tahlil qilish zarur. Bu yondashuv ma'no aloqalarini aniqlashga yordam beradi. Ammo semantik maydonlarning chegaralarini belgilash qiyinchilik tug'diradi. Tilshunoslikda ko'p yillardan beri dolzarb xisoblanib kelayohan konseptual va leksik ma'nolarni farqlashdir. Konseptual ma'no so'zning umumiylarini, leksik ma'no esa uning til birligi sifatidagi ma'nosini aks ettiradi. Ushbu ikki turdag'i ma'no o'rtaqidagi munosabatlar ko'pincha chalkashliklarga sabab bo'ladi. Masalan: "oq" so'zining leksik ma'nosisi: rangi oppoq yoki rangsiz bo'lgan narsa bo'lsa, "oq" so'zining konseptual ma'nosisi: poklik, begunohlik yoki tinchlik ramzi demakdir.

Leksik-semantik kategoriyalarning qo'llanilishi jihatlarini olib qaraladigan bo'lsa bunda, leksik-semantik kategoriyalar til o'qitish, tarjima, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalarida keng qo'llaniladi. Masalan, mashinaviy tarjimada so'zlarning kontekstual ma'nosini aniqlash uchun semantik tahlil muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, til o'rgatishda semantik kategoriyalarni o'rgatish o'quvchilarning leksik bilimlarini oshirishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Til leksikasining semantik kategoriyalarini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar so'zlarning ma'no jihatidan birlashish xususiyatlarini aniqlash, semantik chegaralarni belgilash va leksik tizimni yaxlit holatda tahlil qilish imkonini beradi. Kelgusida ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish orqali semantik nazariyani boyitish va amaliy qo'llanilishini yanada kengaytirish mumkin.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. Lyons, J. (1995). **Linguistic Semantics: An Introduction.** Cambridge University Press.
2. Cruse, D. A. (1986). **Lexical Semantics.** Cambridge University Press.
3. Palmer, F. R. (1981). **Semantics.** Cambridge University Press.
4. Saussure, F. de. (1916). **Course in General Linguistics.** McGraw-Hill.
5. Apresyan, Y. D. (1974). **Lexical Semantics and Lexicography.** Nauka Publishers.
6. Uzbek tilining izohli lug‘ati. (2006). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Jafarov, Q. (2010). **Tilshunoslik asoslari.** Toshkent: Universitet nashriyoti.